

**O'RTA OSIYODA JADIDCHILIK HARAKATINING MAORIF  
TARG'IBOTI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI**

*Begmuratov Dilxushbek Dilmuratovich*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*"Xalqaro munosabatlar" fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

*E-mail: [dilxushbekbegmuratov@icloud.com](mailto:dilxushbekbegmuratov@icloud.com)*

*Annotatsiya: O'rta Osiyoda shakllangan milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish harakati –jadidchilik va ularning xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, maorif sohasini rivojlantirish, keng xalq ommasini savodli qilish uchun jonbozlik ko'rsatgani alohida tahsinga sazovor. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida muallif tomonidan qayd etilgan fikrlar haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: jadidchilik, maorif, ma'rifat, usuli jadid, milliy yuksalish, matbuot, milliy g'oya*

*Annotation: The movement of national, cultural and educational revival in Central Asia - modernism and their efforts to liberate the people from backwardness and religious prejudices, to develop the field of education, and to make the masses of the people literate, are highly commendable. Jadids were looking for ways to renew and improve society with national unity, spiritual and educational reforms. This article deals with the points mentioned above by the author.*

*Key words: modernism, education, enlightenment, modernism, national rise, press, national idea*

*Аннотация: Высокой похвалы заслуживает движение национально-культурного и образовательного возрождения в Средней Азии – модернизма и его усилия по освобождению народа от отсталости и религиозных предрассудков, развитию сферы образования, грамотности народных масс. Джадиды искали пути обновления и улучшения общества посредством национального единства, духовных и образовательных реформ. В данной статье рассматриваются моменты, упомянутые автором выше.*

**Ключевые слова:** модернизм, образование, просвещение, модернизм, национальный подъем, пресса, национальная идея.

## KIRISH

Ilk bora “Jadid” atamasi Usmonli turklar hukmdori Sulton Salim III hukmronligi davrida paydo bo’ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko’rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. 1789 yilgi Fransuz inqilobidan keyin qurilgan yangi tizimni esa “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. “Nizomi jadid” keng ma’noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo’jaligini zamonaviylashtirishni ko’zda tutar edi. Demak, jadid atamasi yangilik tarafdarlarini, yangilik g’oyalarini ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo’llanilgan. XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo’layotgan ulkan madaniy –ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar, yangi munosobatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo’lsada, Turkiston o’lkalariga kirib kela boshladi. Turkiston o’lkasida yangilik tarafdarlarini Abdulla Avloniy so’zi bilan aytganda, “gazeta o’qig’uvchilarni” mullalar “jadidchi” nomi bilan[1] atar edilar. Jadidlar Usmonli Sultonligidagi “Ganch (yosh) turk”lar tashkilotlari tasirida “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” degan nomlarda faoliyat olib borishgan.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning harakatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Turkistonda chor hukumati mustamlakachiligi siyosati tufayli ro‘y bergan fojiali voqeа-hodisalarga qarama-qarshi ravishda ma’rifatparvarlik – jadidchilik harakati dunyoga keldi. Ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma’naviy axloqiy g’oyalar, fikr mulohazalari o’sha murakkab tarixiy sharoitlarda shakllandi va rivojlandi. Jadidchilik harakatining faoliyati maktabdan, maorifdan boshlangan, so’ng matbuot, san’at va siyosatga o’tgan. Rossiya va uning mustamlakalarida jadidchilik harakatiga Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914) asos soldi. U Boqchasaroyda dastlabki “usuli jadid” (yangi usul) maktabini 1884 yilda ochadi. Ismoilbek Gasprinskiyning eng katta xizmati Rossiya sarhadlarida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoqlashib, begonalashish darajasiga yetgan

turkiy xalqlarni birbiriga tanitdi, yaqinlashtirdi. Butun boshli ilg'or marifatparvar, ziyoliliar qatlamini yetishtirdi.

Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab-maorifda chinakam inqilob yasadi. Gaspirinskiyning o'lka ziyolilariga bergan tasiri haqida Toshkent jadidchilarining otasi deb tan olingen Munavvarqori 1927 yil Toshkent okrug maorif xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski maktab, madrasa va qorixonalarining yetishtirgan kishilari edi. Ular yolg'iz Bog'chasaroyda chiqadurg'on Ismoil Gaspirinskiy gazetasini o'qiydilar va shu orqali maktabni yaxshi tushunib, kitoblar oldirar edilar"[2]. Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiyligi madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab yetganlar. Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib etganlar. «Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a surʼa boshladi. Yangi talim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g'oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilishning ko'rinishlaridan edi»[3]. Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni koloqlik, xurofot botqog'idan chiqarishga qaratilgan.

XX asr o'zbek maorifi va madaniyati, qolaversa, bugungi mustaqillik tafakkurimiz, ehtimolki, shu jadidlar oldida burchlidir. «Usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni Turkistonda shular tashkil qilganlar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oliy maktab g'oyasini ilgari surdilar,

o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyushtirib, ular yordamida qanchadan-qancha yoshlarni taraqqiy qilgan Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashru matbuotini boshlab bergan ham shulardir. Jadidlar o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini singdirishga urindilar.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidlik harakatlarining tepasida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiri, So'fizoda, Xamza, Sadreddin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o'nlab fidoiy farzandlari, shoimu adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar.

Behbudiy o'z uyida ochilgan "usuli jadid" maktabining butun moddiy xarajatlarini o'z gardaniga oladi «Padarkush»ning sahnaga qo'yilishidan kelgan asosiy daromadni Samarcand, Qo'qon, Namangan, Toshkent, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlardagi "usuli jadid" maktablariga hadya qildi, bu maktablar uchun o'zi «Muntaxabi jo'g'rofiya umumiyy» («Qisqacha umumiyy jo'g'rofiya»), «Madxali jo'xrofiya umro-qiy» («Ahli jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofiyai Rusiy» («Rusyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o'z mablag'iga matbaa ochib, maktab uchun darslik va qo'llanmalarini tekinga bosib tarqatadi. Samarcanddagi birinchi musulmon kutubxonasi va qiroatxonaning asosiy mablag'i ham uning hisobidan chiqqan edi.

Abdulla Avloniy mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig'i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o'stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo'llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval», «Muallimi soniy», «Turkiy Guliston yoxud axloq», 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Maktab guliston» va boshqa asarlari o'zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o'rin egallaydi.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li ham «usuli savtiya» maktabiga ixlos

bilan qarab, chor hukumati Turkiston o'lkasidagi aholini qanday ma'naviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat «Turon» jadidlar jamiyatini tashkil etdi.

Jadidchilik harakatining ilg'or namoyandası Abdulla Qodiriy ham o'z ilk ijodiy asarlari – «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Uloqda» hikoyalarida, «To'y», «Millatimga», «Ahvolimiz» kabi qator she'rlarida ma'rifatsizlik orqasida Turkiston erli aholisining qoloqligidan, g'aflatda yotganligidan kuyib-pishib noliydi, o'z xalqi ahvoliga g'oyat achinib, og'ir iztiroblardan qutulishning yagona yo'li – ilm-ma'rifatni egallash g'oyasini ilgari suradi.

## XULOSA

Turkiston diyorida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma'rifatparvarlik sohasidagi faoliyati o'z davri uchun eng muhim burilish pallasi bo'lgan. Jadidchilik harakatining ijtimoiy – siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g'oyalari, bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari alohida katta mavzudir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini shuncha

ko'p anglab yetadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Avloniy A.“Tarjimai xol. Tanlangan asarlar.2-jild.T., “Ma’naviyat”, 1998. 288-bet.
2. Munavvarqori A. “Qizil O’zbekiston” 1927 yil, 7iyun. Ziyo uz. Com.
3. Jadid ma`rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. <https://abiturtest.uz/>
3. Qosimov B.“Milliy uyg’onish”, T.,”Sharq”,2004 yil,53-bet.
4. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.
5. Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
6. Yaxyoyeva G. Jadidlar - ma’rifat darg’alari.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7109381>